

QOYATOSH SURATLARIDA OTNING DINIY-MIFOLOGIK VA G'OYAVIY-SEMANTIK MOHIYATI

© 2024. Bahodir To'ychiboev

Guliston davlat pedagogika instituti

Kalit so'zlar: Qoyatosh rasmlar, tasvirlar semantikasi, g'oyaviy mazmun, "Davon otlari", Ayrimachtog', Sarmishsoy, Saymalitosh, ko'p markazli kontsepsiya, xonakilashtirish (domestikatsiya), ippologiya, xonakilashtirilgan otlar (*Equus caballus*), "Midiya-Fors oti", "Xutal (Baqtriya) oti", "Nessey (Parfiya) oti", ot kulti, Tishtria (Sirius), sig'inish, topinish, muqaddas qadamjo.

Maqola qoyatosh suratlarda ko'p uchraydigan obrazlardan biri, ot tasvirlari semantikasi tadqiqiga bag'ishlangan. Maqolada otning xonakilashtirilishi (domestikatsiya), naslli otlar yetishtirish, ot timsoliga topinish, ot tasvirlarining diniy-mifologik va g'oyaviy-semantik mohiyati xususida bildirilgan fikrlar tizimlashtirilgan. Petroglif yodgorliklarning tabiiy sharoiti og'ir bo'lgan tog'li joylarda joylashganligi, bu ob'ektlarning ma'lum bir diniy ahamiyatga ega ekanligi va "sig'inish, topinish" qadamjoylari bo'lganligidan dalolat beradi. Ot qadimiy odamlarning kundalik hayotidagi asosiy uy havoni sifatidagi muhim o'rin tutgan. Ot kultiga topinish esa qadimiy odamlar diniy dunyoqarashlarining muhim tarkibiy qismi, diniy marosimlarning muhim elementi ham bo'lib kelgan. Ushbu hodisaning ildizlari va mohiyati tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilib kelingan. Maqolada ularning ayrimlariga to'xtalib o'tilgan. Jumladan: ot - diniy va afsonaviy dunyoqarashni ifoda etuvchi kosmogonik va quyoshga topinish bilan bog'liq qarashlar ramzi sifatida bir qancha ma'nolarni anglatganligi, masalan: otlarning yakka, juft, yoki guruh shaklida tushirilgan tasvirlaridagi ularning soni majoziy ma'noni anglatishi, ayg'ir va biya shaklidagi juft ot tasvirlari, qadimiy unumdorlik va ko'payish topinchi kultini aks ettirib, narigi dunyoda "abadiy yaylovda" juft bo'lib yashashlarini ifoda etganligi yoritilgan. Bundan tashqari, otning muqaddas jonzor timsoli sifatida, hukmronlik belgisi va boshqa shu kabi qarashlarning mohiyati, kelib chiqishi va ildizlariga to'xtalib o'tilgan.

РЕЛИГИОЗНО-МИФОЛОГИЧЕСКАЯ И ИДЕЙНО-СЕМАНТИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ ОБРАЗА КОНЯ В НАСКАЛЬНЫХ ИЗОБРАЖЕНИЯХ

© 2024. Баходир Туйчибоев

Гулистанский государственный педагогический институт

Ключевые слова: Петроглифы, наскальные рисунки, семантика изображений, духовно-идейное содержание, Даваньские лошади, Айримачтаг, Сармышсай, Саймалиташ, domestikatsiya лошади, (*Equus caballus*), иппология, «мидийско-персидские лошади», «Хутальская (Бактрийская) лошадь», «Нессейская (Парфянская) лошадь», культ коня, Тиштрия (Сириус), поклонение, святыня.

Статья посвящена изучению семантики изображений лошадей – одного из наиболее распространенных образов в наскальных рисунках. В статье систематизированы сведения о приручении (Одомашнивании) лошади, разведении чистокровных лошадей, поклонении культу лошади, религиозно-мифологическом и идейно-смысловом значении в изображении лошадей. Факт, у того что наскальные памятники расположены в горной местности с суровыми природными условиями, свидетельствуют о том, что эти объекты имели определенный культовый характер и являлись местами «богослужения, поклонения».

Лошадь играла важную роль в повседневной жизни древних людей как главное домашнее животное. Поклонение культу коня было важной составляющей религиозного мировоззрения древних людей и важным элементом религиозных обрядов. Корни и суть этого явления исследователями трактовались по-разному. В статье упоминаются некоторые из них, в том числе: лошадь – символ космогоническо-

го и солнцепоклонничества (культы), который представляет религиозно-мифическое мировоззрение и имеет несколько значений, например: количество лошадей в одиночной, парной или групповой форме на изображениях носят символическое значение, изображения пары лошадей в виде жеребца и кобылы отражают древний культ плодородия и воспроизводства и олицетворяют то, пырность жизни на «вечном пастбище» в потустороннем мире. Кроме того, обсуждаются сущность, происхождение и корни культа лошади как символа священного существа, как знака суверенитета и другие взгляды.

Kirish

Qoya tosh rasmlarining syujetini o'rganish, ularning semantikasi, ya'ni g'oyaviy mazmunini aniqlash masalasi bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli, qadimgi odamlar hayotini o'rganishda, faqatgina qoya tosh rasmlarni kim va qachon chizilganligi bilan cheklanib qolmasdan, bu tasvirlar qanday maqsadda chizilgan va bu tasvir orqali rassom nima demoqchi bo'lgan, bu tasvirlar orqali bermoqchi bo'lgan fikrlari, g'oyalari va tasvirlarning semantik mazmunini aniqlash murakkab masalalardan biridir. Ushbu murakkab va qiyin jarayon, tadqiqotchilardan muammoni chuqur va har tomonlama tadqiq qilishni talab qiladi. Shu sababli, tadqiqotchilar bu materiallarni sharhlashda o'zlarining ilmiy asoslangan qarashlarini taklif qiladilar. O'z vaqtida A. N. Bernshtam, petrogliflarda tasvirlangan alohida kompozitsiyalarning mazmunini aniqlashtirish, ularni etnografik material bilan solishtirish va mohiyatini anglash, kabi ishlarning barchasi, kelajakda amalga oshiriladigan vazifalari, deb bejiz ta'kidlamagan edi (Бернштам 1952: 68).

Qoyatosh suratlarda ko'p uchraydigan obrazlardan biri, bu — ot tasvirlari hisoblanadi. Mil. oldingi II ming yillik o'rtalarida, Yevrosiyo kengiliklarida yashagan qadimgi xalqlar xo'jaligida yilqichilik xo'jaligining qaror topishi, jamiyat hayotida favqulotda tub ijtimoiy – iqtisodiy va etnomadaniy o'zgarishlar yuz berishiga olib keldi. Qoyatosh suratlardagi ot tasvirlari, O'rta Osiyo qadimiy aholisining xo'jaligida chorvachilik, hususan yilqichilik, muhim o'rin egallaganligini ko'rsatadi. Otlar va chavandoz rasmlari aks ettirilgan petroglif yodgorliklari, O'rta Osiyoda yashagan qadimgi xalqlar iqtisodiy — ijtimoiy, ma'naviy — madaniy hayoti haqida boy ma'lumotlar beruvchi manba sifatida, maxsus o'rganilishni talab qiladigan mavzu hisoblanadi. O'rta Osiyoda bugunga qadar aniqlangan Aravansoy, Ayrimachtog', Saymalitosh, Sarmishsoy, Qoraqiyasoy va boshqa shu kabi ko'plab qoyatosh yodgorliklarida mahorat bilan aks ettirilgan ot tasvirlarining ijodkorlari, chorvador-cho'ponlar, e'htirosli chavandozlar bo'lganligidan dalolat beradi.

Hayvon tasvirlari semantikasi, ularning g'oyaviy mazmun-mohiyatini o'rganish masalasi, murakkab muammollardan biri bo'lganligi sababli, bu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar, son jihatidan uncha ko'p emas. Ot obrazi, jumladan petroglif yodgorliklarda uchraydigan ot tasvirlari semantikasi mavzuda A. N. Bernshtam (Бернштам 1948: 155–161; Бернштам 1952: 50–68), M. E. Masson (Массон 1948: 129–140), Y. A. Zadneprovskiy (Заднепровский 1962: 126–128), V. O. Vitt (Витт 1937; Витт 1952: 163–205), V. A. Ranov (Ранов 1960), A. Ya. Shtenko (Штенко 2008: 219–233), A. M. Belenitskiy (Беленицкий 1948: 163; Belenitskiy 1978: 31–39), J. Kabirov (Кабиров 1976), S. P. Nesterov (Нестеров 1990), K. A. Rudenko (Руденко 2008: 146–148), E. E. Kuzmina (Кузьмина 1977; Кузьмина 1977a), M. M. Xujanazarov (Хужаназаров 2008: 217–222), X. S. Muxamadiev (Мухамадиев 2011: 134–137) va boshqalar (Кубарев 2001: 95–107; Камолиддин 2006: 79–99) o'z qarashlarini bildirib o'tganlar.

Quyida O'rta Osiyo petroglif yodgorliklarida aniqlangan ot tasvirlarining ayrimlariga to'xtalib o'tamiz. Qirg'iziston Respublikasidagi O'sh shahrining shimoliy-g'arbida joylashgan Aravan qishlog'i yaqinida, yozma manbalarda "samoviy otlar" nomi bilan tilga olingan qoyatosh tasvirlar aniqlangan (Бернштам 1948: 155–61). Unga, juft – juft ko'rinishida, to'rtta ot tasviri mohirlik bilan tushirilgan. Bu qoyatosh suratlarda, oqqushniki kabi nozik bo'ynini ohista egib turgan, kichik boshli go'zal otlar tasvirlangan. Otlarning ozg'in, quyiga qarab ingichkalashib boruvchi oyoqlari, asabiy va tarang tortilgan kuchli tanasi, quyruq qismida biroz ko'tarilib turgan dumi,

keng yagʻrini va unga mutanosib tanasi, bu tasvirlarda ularni yanada jonli va jozibador koʻrsatadi. Bu qoyatosh suratlar ilmiy doiralarda “Aravan (Davon) otlari” nomi bilan maʼlum. Shu bilan birgan, Aravon qoyasiga yaqin, Koʻrpa-Togʻ tizmasida Ayrimachtogʻ qoyatosh rasmlarida ham, shu uslubda tushirilgan ot tasvirlari aniqlangan (Заднепровский 1962: 125–128). Ayrimachtogʻ qoyatosh suratlarida hammasi boʻlib 34 ta ot tasviri tushirilgan boʻlib, ularning asosiy qismi, yaʼni 30 tasida, yakka holda turgan ot suratlaridir. Bu yodgorlikda, barcha otlarning koʻrinishlari yon tomondan turib tasvirlangan boʻlib, ularda otlarning oʻziga xos tashqi xususiyatlari, jumladan ozgʻin, kelishgan tanasi, uzun va ingichka oyoqlari, silliq va uzun boʻyni, kichkina boshi, uzun dumlari mohirlik bilan tasvirlangan. Yaʼni, Aravan va Ayrimachtogʻ qoyatoshlarida, bir xil turdagi otlar yagona uslubda ishlanganligini koʻrishimiz mumkin. Aravon qoyatoshlarida toʻrtta otning surati berilgan boʻlsa, Ayrimachtogʻ qoyatoshlarida, yakka oʻzi tasvirlangan otlarning majmuasi tasvirlangan. Aravansay, Ayrimachtogʻ qoyatosh tasvirlari uslubida ishlangan tasvirlar, shu paytga qadar Oʻrta Osiyoning boshqa hududlarida uchramaydi va oʻzining uslubiy hususiyatlari bilan, boshqa joylarda aniqlangan ot tasvirlaridan keskin farq qiladi. Oddiy odam ham bu tasvirlarni koʻrib, ularning prototiplari juda chiroyli, kelishgan otlar boʻlganligini anglab etadi. Bu tasvirlar, petroglif ijodkorlari tomonidan juda mahorat bilan ishlangan. Umuman olganda, bu qoyatosh rasmlar majmuasi, mohir ustaning tajribali qoʻli bilan yaratilgan, qadimiy Fargʻona (Davon) otlari tasvirlarining ajoyib galereyasidir. M. E. Masson Ayrimachtogʻ va Aravon qoyatosh rasmlarini milodiy I – ming yillik oʻrtalari (Массон 1948: 133), A. N. Bernshtam miloddan avvalgi III – II asrlar (Бернштам 1952: 224), Y. A. Zadneprovskiy – miloddan avvalgi I – ming yillikning ikkinchi yarmiga oid (Заднепровский 1962: 179) deb hisoblaydilar. Koʻrib turganimizdek, yuqoridagi mualliflar “Aravon qoyatosh tasvirlari”ning yoshi toʻgʻrisidagi fikrlari, bir biriga yaqin. Muta-xassislarning fikricha, nasldor ot zotlarini yetishtirish va koʻpaytirish uzoq vaqt talab qiladigan jarayonligi, bu qoyatosh suratlar uzoq davr davomida chizilib borilganligini inobatga olsak, mashhur Davon otlarini yetishtirish qadimgi davrlarga, aniqrogʻi, miloddan avvalgi birinchi ming yillikning oʻrtalari, hatto miloddan avvalgi birinchi ming yillikning boshlariga (Chust madaniyati davri) toʻgʻri keladi, deb taxmin qilish mumkin. Ot tasvirlari, Oʻrta Osiyoning boshqa hududlarida ham koʻplab uchraydi. Masalan, Sarmishsoy tasvirlarida (mil. avv. I ming yillik) salt miniladigan otlar, otliq chavandozlar, bunda chorva va yilqilarni haydab ketayotgan otliq chavandozlarning tasvirlari mohirlik bilan ishlangan (Кабиров 1976: 104), yoki, Saymalitosh yodgorligida jami 32 ta ot tasviri, 10 tasi chavandozlar bilan, 18 tasi yakka koʻrinishda, hayvonlar yoki odamlar bilan birgalikda tasvirlangan (Агафонова, Кожамберидиев 1978). Qoraqiya soyining yuqori oqimida (Toshkent viloyati Boʻstonliq tumani) (Хужаназаров 1990: 29–32), Saymalitoshda (Бернштам 1952: 50–68) arava va ot tasvirlari aniqlangan. Bundan tashqari, Quduqchasoy (Холматов, Хўжаназаров 2014: 103–111), Qoratogʻ, Nurota va Oqtogʻ oralaridagi qoyatoshlarda, Toshkent viloyatining Xoʻjakent qishlogʻi yaqinida, Parakandasoy (Хужаназаров 1983: 165–172), Beshqizilsoy, Bukantov (Оскын 1975: 34–43; Хужаназаров, Развадовский 2003) va shu kabi qator qoyatosh yodgorliklarida ham ot tasviri ishtirokidagi kompozitsiyalar aniqlangan.

Tadqiqotchilar tomonidan ot tasvirlarining semantik mohiyatini talqin qilishga urinishlari, bu tadqiqotlarni bir qancha yoʻnalishlarga ajratish imkonini beradi. Bular, otni xonakilashtirish, naslli otlar yetishtirish, ot timsoliga topinish va ot tasvirlari zamirida qadimgi odamlarning diniy eʼtiqodiy qarashlari mohiyatini izlash, yilqining jamiyat siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida tutgan oʻrni kabi yoʻnalishlar hisoblanadi.

Otni xonakilashtirilishi, naslli otlar yetishtirish muammosi

Oʻrta Osiyo yilqichilik tarixini oʻrganishga qaratilgan tadqiqotlar tahlili, ularda bir-biri bilan bogʻliq ikki masala, birinchisi, otning xonakilashtirilishi, ikkinchisi, naslli otlar yetishtirilishi

masalasi bo'lganligi ko'zga tashlanadi. Yilqichilikning paydo bo'lishi, hususan otning xonakilashtirish masalasida, mutaxassislar o'rtasida aniq bir fikr mavjud emas. Bir guruh polezologlar va tarixchilar, ot neolitning oxiri ilk eneolit davrlarida Sharqiy Yevropa, Dunay va Ural oralig'i hududlarida xonakilashtirilgan degan fikrni bildiradilar (Беленицкий 1978; Кузьмина 1977: 96–119, Нестеров 1990). Ippologlar va yana bir qator tarixchilar yuqoridagi fikrlarga qo'shilmay, otning xonakilashtirilishi masalasiga ko'p markazli kontseptsiya asosida yondashib, otning xonakilashtirilishi Yevrosiyo kengliklarining bir necha markazlarida bir vaqtda o'zida bo'lib o'tganligi haqidagi g'oyani ilgari suradilar (Федотов 1989).

Ayrim tadqiqotchilar yilqichilik, mil avv. IV–III ming yilliklarda Sharqiy Yevropa, Janubiy Ural (Матюшин 1972: 229) va Yevrosiyo kengliklarida yashab kelgan ko'plab xalqlar madaniyatining bir qismiga aylanib, harbiy va xo'jalik ishlarida faol qo'llanib kelingan deb hisoblaydilar. Ammo, tadqiqotchilar tomonidan ot ilk xonakilashtirilgan joylar sifatida ko'rsatilgan Derivka qishlog'i (Ukraina. mil avv. 4000–3500 yillar (Matossian 2009) va Botay (Shimoliy Qozog'iston. mil. avv. 3700–3000 yillar (Anthony, David; Brown, Dorcas 2000: 75–86) madaniyatlaridan topilgan topilmalarda, o'z isbotini topmadi (Anthony, David; Brown, Dorcas 2000: 75–86; Anthony, David; Telegin, Dimitri; Brown, Dorcas 1991: 94–100). N. A. Avanesova va N. A. Tashpulatovalar, arxeologik materiallar asosida (Sazag'on I, Sazag'on II, Zamichatosh, quyi Zarafshon Tuzkon neolit yodgorliklari va boshq), ot O'rta Osiyo hududida neolit davridan boshlab xonakilashtirilgan deb hisoblaydilar (Аванесова, Ташпулатова 2012). S. A. Grigorev, Yevrosiyo dashtlarida otlarni xonakilashtirish, mil. avvalgi II ming yillik boshlariga qadar, muhim ijtimoiy – iqtisodiy sabablar yo'qligi sababli mumkin bo'lmagan deb hisoblaydi. Uning fikriga ko'ra, mil. avvalgi III ming yillikda Yaqin Sharqda mintaqaviy savdning o'sishi natijasida aravalarga bo'lgan ehtiyojning paydo bo'lishi, otni xonakilashtirish uchun ehtiyojni yuzaga keltirdi va bu jarayon otni inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan turga aylanishiga olib keldi, deb hisoblaydi. Bronza davriga kelib, bu jarayon ta'sirida boshqa hududlarda ham yovvoyi otlar xonakilashtirilgan deb hisoblaydi (Григорьев 2021: 222–238). Yovvoyi hayvonlarni uy sharoitiga moslashtirishi uzoq vaqt davom etadigan jarayon bo'lganligi sababli, ayrim tadqiqotchilar, xonakilashtirilgan otlar, mil. avv. gi 3 – ming yillikning 2 – yarmida paydo bo'lganligi haqida fikrlar bildiradi (Benecke, Norbert; Von den Dreisch, Angela 2003: 69–82). O'rta Osiyoda xonakilashtirilgan otlar (*Equus caballus*) ning ilk qoldiqlari poleozoolog N. M. Yermolova tomonidan, mil avv. III ming yillikning oxiri – II ming yillikning o'rtalariga oid Gonur nekropolidan (Turkmaniston) topilgan (Сарианиди, Дубова, Васильев 2001: 62–63; Ермолова 1986: 116; Щтенко 2008). V. I. Sarianidi mil avvalgi III – II ming yilliklarda “Turkmaniston hududida yashagan qadimgi qabilalari allaqachon yilqichilik bilan tanish bo'lganlar va xo'jalikda xonaki otlarni yetishtirganlar” degan fikrni bildiradi (Сарианиди 2002: 273; Сарианиди 1990: 239). K. F. Smirnovning fikricha, Volgabo'yi va Qozog'iston qabilalari orasida otlardan minib yuriladigan hayvon sifatida foydalanish, mil avvalgi II ming yillikning birinchi yarmidan boshlangan (Смирнов 1961: 46).

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, tadqiqotlar tahlili, otning xonakilashtirish jarayoni, bir necha bosqichda, birinchi bosqich, ilk eneolit davridan ozuqa manbai sifatida; ikkinchi bosqich, bronza davridan boshlab, transport vositasi sifatida foydalanish maqsadida amalga oshirilganligidan dalolat beradi. Natijada, miloddan avvalgi II – ming yillikning 2 – yarmidan boshlab, O'rta Osiyoda ko'chmanchi chorvachilik xo'jaligi tarkib topib, nafaqat cho'l, balki, tog', tog' oldi hududlar ham o'zlashtirila boshlangan va ajdodlarimiz hayotida yilqichilik muhim rol o'ynay boshlagan. Tarixiy manbalar (arxeologik, yozma, folklor va etnografik) dalillarga tayanib, O'rta Osiyoda otlarning xonakilashtirish jarayonining ilk ildizlari mil. avvalgi III–II ming yilliklarga, yilqichilik xo'jaligining vujudga kelishi, mil. avvalgi II ming yillikning oxiri va I ming yillikning boshlariga taalluqli deb hisoblash imkonini beradi. Bu fikrimizni mil. avvalgi

I ming yillikka oid qoyatosh suratlardagi (Sarmishsoy, Saymalitosh) tasvirlarda miniladigan salt otlar va otliq chavandozlarning tasvirlari ham tasdiqlaydi. Bu kabi ot tasvirlari, boshqa qoyatosh yodgorliklarda (Qoratog', Nurota va Oqtog' oralaridagi qoyatoshlari, Xo'jakent, Qoraqiyasoy, Beshqizilsoy, Farg'ona vodiysidagi Ravan va Achchiqsoy daralari) ham ko'plab uchraydi.

Yilqichilik tarixidagi muhim yo'nalishlardan yana biri, bu naslli otlarni yetishtirish masalasi hisoblanadi. Ushbu muammoni o'rganishda, qoyatosh suratlari muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Tarixiy manbalar O'rta Osiyo zotli otlari qadimdan mashhur bo'lganligi haqida ma'lumotlar beradi. V. O. Vitt Pozariq qo'rg'onidan topilgan otlardan biri haqida: "Bu qadimgi davrdagi O'rta Osiyoning ulug'vor, oliyjanob va jangovor otidir" (Витт 1937), deb bejizga aytmagan edi.

Ma'lumki, zotli otlarni yilqi uyurlari orasida, qishda sovuq iqlimli keng tekisliklarda yetishtirishning imkoni yo'q. Bunday otlar qulay iqlim sharoiti va doimiy parvarish talab qiladi. Ippologlar fikriga ko'ra, O'rta Osiyo chopqir otlari, sovuq shamollardan himoyalangan vodiylar, boy va to'yimli dukkakli va boshqoqli o'simliklar (masalan beda), yozda qurib qolmaydigan tog' o'tloqlari, qulay suv xavzalari kabi qulayliklar mujassam bo'lgan, ekologik zona mahsuli hisoblanadi.

Tadqiqotchilar, Kaspiy dengiziga tutashgan o'lkalar, xususan qadimgi Fors va undan sharqda joylashgan mintaqalar (O'zbekiston, Tojikiston, Turmaniston, Qirg'iziston hududlari), qadimdan o'zining yilqichiligi, noyob naslli otlari bilan mashhur bo'lganligini ta'kidlaydilar. Shunday mintaqalardan biri Dovon (Farg'ona) hududi hisoblanadi. Xitoyliklar, Dovonning "qonli ter chiqaradigan" afsonaviy "samoviy duldul otlari" zotidan bo'lgan "qimmatbaho jannat tulporlari"ga ega bo'lish maqsadida Dovonga yurish qilganliklari haqida yozma manbalar ham ma'lumot beradi (Бичурин (Иакинф). 1950: 149). Bu otlar ilmiy tilda "Aravan tulporlari" nomi bilan mashhur, Aravon va Ayrimachtog' otlarining qoyatosh tasvirlari ham, bu taxminlarimizning to'g'ri ekanligini ko'rsatadi.

Zotdor otlarni yetishtiruvchi naslchilik markazlaridan yana biri, bu Baqtriya tarkibiga kirgan qadimgi Xuttalondir. Xuttalon otlari mil. avv. I ming yillikdan ma'lum bo'lgan (Бернштам 1948: 158–159). Fors podshohlariga yillik soliq to'laydigan davlatlar ro'yxatidan ham shu narsa ma'lumki, Baqtriya har yili 30 000 ot etkazib bergan (Витт 1937). Bu o'sha davr uchun juda katta raqam hisoblanib, bu Qadimgi Baqtriya, yilqichilik rivojlangan markaz bo'lganligini ko'rsatadi. Turli hujjatlarda saqlanib qolgan ma'lumotlar, Baqtriyada otlar endemik jonivor bo'lganligidan dalolat beradi. Arastuning aytishicha, Baqtriyaning tog'li tekisliklarida "oltin rangli" zotli otlar yetishtiriladi. Sankt-Peterburg shahridagi Ermitaj muzeyi kolleksiyalarida Baqtriyadan topilgan qimmatbaho kumush idish saqlanadi (mil avv. III asr) (Тревер 1940: 90–92). Idishda yilqichilik va ot yetishtirish bilan bog'liq kompozitsiyalar: ayg'ir va toychoq, yana birida, biya va uni emizayotgan toychoq tasvirlari tushirilgan. Tasvirdagi, otning baland bo'yi, ixcham va chiroyli tanasi, ingichka oyoqlari, go'zal bo'yni va tik boshi uning zotli ot ekanligidan dalolat berib turibdi.

Manbalarda go'zal tasvirlari keltirilgan yana bir O'rta Osiyo zotli otlaridan biri, bu Nessey otlari hisoblanadi. Nessey otlarining tashqi ko'rinishining ajoyib tavsifini yozma manbalarda keltiriladi. "Eron Forsida juda qadrlanadigan otlar bor. Bu otlarning harakatlari yengil, jasoratli va sho'x, chavandozni charchatmaydi, o'zlari chidamli, bu otlarning xarakterida hayajon va g'azab ufurib turadi. Ular o'zlarining ajoyib qaddi-qomati, nafisligi bilan ajralib turadi, ayniqsa ularning go'zal bo'yni va boshi bir-biri bilan shunchalik uyg'unlashib ketgan-ki, lablari ko'kragiga tegib turganday tuyuladi" (Витт 1937). Nessey tekisligining aniq joylashuvi haqida tadqiqotchilarning fikrlari bir birdan farq qiladi. Ayrim tadqiqotchilar, katta ehtimol bilan, bu hudud Nishopur tekisligi (Mashhad yaqinida) bo'lishi kerak, deb hisoblaydilar. Gerodot "Tarix" asarida: "Midiyada Nesea deb nomlangan keng tekislik bor va bu tekislikda ulug'vor otlar bor" deb yozadi. Ayrim tadqiqotchilar, "Nisean otlari"ni Parfiya poytaxti Niso shahri bilan bog'laydilar. Parfiyada qadim

zamonlardan beri zotli otlar yetishtirilgan va Nesey otlaridan hozirgi mashhur Axal-Teke zotidagi otlari tarqagan degan qarashlar mavjud. Strabon (milodiy I asr): "Nesiya otlari eng katta va eng zo'r otlar bo'lib, fors shohlari shu otlardan foydalanganlar", deb ma'lumot beradi.

Umuman olganda, yozma va arxeologik manbalar, jumladan qoyatosh suratlar tahlil asosida, xulosa qilib aytishimiz mumkinki: Eronning shimoliy qismi tog' etaklari, Afg'oniston, O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston hududlarida, "Midiya-Fors oti", "Xutal (Baqtriya) oti", "Davon (Farg'ona) oti" va "Nessey (Parfiya) oti" nomlari bilan mashhur bo'lgan zotli otlar yetishtirilgan. Garchi ularning bir biridan turi, xarakteri, tashqi ko'rinishi, rangida ayrim o'ziga xos farqlari bo'lishiga qaramay, ularning kelib chiqishi bir bo'lgan. Ta'kidlash joizki, Markaziy Osiyo zotli otlari naslchilik maktabi, umumjahon e'tirofidagi noyob zotli otlarning oltin fondining asoslarini tashkil qiladi. O'rta Osiyo xalqlari, axal-teke, yovmut, qorabair, loqay va boshqa turdagi naslli otlari bilan, yilqichilikda dunyoning hech bir davlatida uchramaydigan genofondni taqdim etib, beqiyos qiymatga ega bo'lgan ot populyatsiyasi, yilqichilikning sof naslchilik an'alarini yaratib kelgan.

Ot timsoliga topinish va ot tasvirlarining diniy-mifologik va g'oyaviy-semantik mohiyati xususida

Yirik petroglif yodgorliklarning, tabiiy-iqlim sharoiti og'ir bo'lgan, borish qiyin bo'lgan tog'li joylarda joylashganligi, ushbu ob'ektlarning ma'lum bir diniy ahamiyatga ega, "sig'inish, topinish" joylari bo'lganligidan dalolat beradi. Bunday fikrga kelish uchun bir qancha omillar sabab bo'lishi mumkin. Masalan, yirik qoyatosh rasmlari yodgorliklarning, qishda qor bilan qoplanib turgan, eng yuqoridagi tog' yaylovlaridan ham baland joylarda joylashganligi, masofaning uzoqligi, bu yerga keluvchi odamlar zarurat yuzasidan kelganligini ko'rsatadi. Aftidan, dehqon yoki chorvador aholi, ayni yoz oylarida, ya'ni xo'jalik ishlari qizg'in pallada, bunday uzoq va mashaqqatli yo'l bosib kelishining sababi, ularni muqaddas qadamjo deb hisoblab, turli diniy amallar yoki marosimlarni bajarish uchun borganlar. Bu tasvirlarning, qattiq tog' toshlarga og'ir mehnat bilan uzoq vaqt va katta kuch sarflab yaratilishi ham, bu tasvirlarni chizish uchun qandaydir zarurat bo'lganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari yozma va etnografik manbalar, qoyatosh yodgorliklarning ko'pchiligi yaqin davrlarda ham aholi tomonidan muqaddas sanalib, bu yerlarga bepusht ayollar, bemor odamlar kelib sig'inganliklari, yoki chorva orasida kasallik tarqalganda ma'lum bir diniy amallar bajarib kelganliklari haqida ma'lumotlar beradi. Barcha holatlarda bu yerlarda jonliq so'yilib, qurbonlik qilingan. Albatta bu odat, islomga hech qanday aloqasi bo'lmagan, xalq orasida saqlanib qolgan qadimiy e'tiqod elementlari hisoblanadi. Bu tasvirlar qadimiy bo'lganligidan, ko'p hollarda mahalliy aholi ularni Qodir Tangri tomonidan yaratilganligiga ishonishgan. Bularning barchasi qoyatosh tasvirlaridagi obrazlarning ham qadimiyligini, ham ularning diniy topinish joyi sifatidagi o'rnini yana bir bor tasdiqlaydi. Bunday joylarning chorva yaylovlaridan, yo'llardan uzoqda joylashganligi ham, ularning muqaddas qadamjolar bo'lganligini tasdiqlaydi. Yuqorida sanab o'tilgan barcha omillar, qoyatosh suratlar tushirilgan yodgorliklar, qadimdan muqaddas joylar vazifasini bajarib kelganligidan dalolat beradi. Qoyatosh tasvirlar semantikasi o'rganish, bu qadimiy maskanlarining diniy mohiyatini anglashda, yangi bir sahifani ochishi mumkin.

O'rta Osiyo xalqlari, xususan uning chorvador qatlami orasida uchraydigan otga topinish odatlari, ildizlari qadimiy davrlarga borib taqaluvchi, barqaror ijtimoiy-madaniy hodisa hisoblanadi. Chorvador xalqlar orasida uning ayrim elementlari hozirga qadar saqlanib qolgan. Qadimgi odamlar taffakkuriga ko'ra, ot – tafakkur, donolik, nur, g'ayrat, kuch, fikr va vaqt tezligi tushunchalarini; hosildorlik, mardlik, dovyuraklik, kuchli hokimiyat ramzini; boshqa tomondan olamning paydo bo'lishini ifodalovchi timsol sifatlarini ifodalagan. Ot obrazi qadimdan hosildorlik ramzi, yoki osmon gumbazi bo'ylab olamni yoritib turuvchi quyosh timsoliga topinish bilan bog'lab kelingan.

Shuningdek, afsonaviy dunyoqarashga ko'ra, otga muqaddas hayvon, ya'ni qadimgi xudolar timsoli yoki ramziy belgisi sifatida qaralgan. Ot, narigi dunyo bilan bog'liq, ikki dunyoni bog'lab turuvchi mavjudot timsoli sifatida talqin qilinib kelingan. Ayrim tadqiqotchilar, qoyatoshlardagi ot tasvirlari semantikasi zamirida, qadimgi odamlarning diniy e'tiqodiy qarashlari ifodalangan deb hisoblaydilar (Массон 1948, 129–140). Hayvonlarga topinish kulti, qadimiy odamlar diniy dunyoqarashlarining muhim tarkibiy qismi sifatida, diniy marosimlarning muhim elementi bo'lib kelganligini ko'rishimiz mumkin. Shu sababli, ushbu hodisaning ildizlari va mohiyati masalalari, tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilib kelingan. Quyida ularning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.

1. Qabrlarda mayitni ot bilan birga ko'mish odati. Arxeologik tadqiqotlar jarayonida, ko'chmanchi xo'jaligi yurituvchi qabilalar dafn yodgorliklarida, marhum bilan bir qabrga otlar, ot tanasining bir qismi, yoki hayvonning o'rnini ramziy ravishda anglatuvchi ot jabduqlari qo'yish odati ko'p kuzatiladi. Bu odat eneolit davridan to o'rta asrlarga qadar davom etib kelgan (Нестеров 1990; Тошбоев 2022: 123; Матбабаев, Иванов 1997). Ilmiy adabiyotlarda bu odatning izohi turlicha talqin qilib kelinadi. Ularning ichida asosiysi, bu o'limdan keyingi hayotga bo'lgan ishonchga asoslanadi. Ya'ni, marhum hayoti davomida ishlatgan barcha narsalar, jumladan ot ham, narigi dunyoda unga hamroh bo'lishi kerak edi. Yana boshqa bir talqinga ko'ra, ot – insonning narigi dunyoda yangi abadiy hayot uchun qayta tug'ilishiga yordam beruvchi, unga hosildorlik va boylik keltiruvchi ma'naviy kuch manbai hisoblangan (Кубаев 1980: 58–70).

2. Ot timsoli, diniy va afsonaviy dunyoqarashni ifoda etuvchi kosmogonik va quyoshga topinish kulti bilan bog'liq qarashlar ramzi sifatida. Farg'ona samoviy otlari haqidagi afsonalar tarixchilarning asarlarida ko'p bor tilga olingan (Абдуллаев, Ғозиев 2023: 45–48). Samoviy otlar haqidagi afsonalar O'rta Osiyoning o'troq va ko'chmanchi xalqlari folklorida mashhur bo'lgan qanotli ot g'oyasi bilan bog'liq. O'zbeklarning qahramonlik dostonida qanotli ot – qahramon taqdiri va sarguzashtlarida muhim o'rin tutadi. Parvoz paytida u baland tog'larni oshib o'tib, bulutlarga yetib boradi (Жирмунский, Зарифов 1947: 351).

Aravon, Ayirmochtog' va boshqa yodgorliklarda otlarning qoyatoshlarga tushirilgan tasvirlari, O'rta Osiyoda qadimda ot topinchi (kulti) keng tarqalganligidan dalolat beradi (Бернштам 1952: 226; Заднепровский 1962: 179). Qoyatoshlarda otlarning yakka va juft-juft shaklida tushirilgan tasvirlari uchraydi. Tasvirlangan ot sonlari ham majoziy ma'noni anglatadi (Кубаев 1980: 58–70).

a) Petrogliflarda tasvirlangan yakka ot tasvirlari, osmon va samoviy jismlarga topinch (kult) bilan bevosita bog'liq bo'lib, unda ot obrazi, olovli nurlarini taratib turgan quyoshni ifodalaydi. Manbalarda qadimda muqaddas quyoshga otlar qurbonlik qilinganligi haqida ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Gerodot massagetlar haqida, ular “faqat quyoshga topinadilar, unga otlarni qurbonlik qilishadi” deb yozadi. Gerodotning fikriga ko'ra bunday qurbonlikning ma'nosi “eng tezkor xudoga, barcha hayvonlarning ichida eng tezkori loyiqdir”. Bu, ot va quyosh o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiruvchi kombinatsiya ekanligi ma'lum. Zero, “Avesto”ning muqaddas madhiyalarida ham quyosh otga qiyoslangan. Quyosh xudosi Mitraga bag'ishlangan Yasht (madhiya)da unga “otlarining ustida o'tirib, ular (otlar) uchun kuch so'rab” sig'inishlari aytiladi (Брагинский 1956: 105). Quyoshga bag'ishlangan Yashtda ham, uning tezkor otlari borligi aytiladi. Avestoda quyosh ham Mitra singari, “samoviy otlarga qo'shilgan olov rang arava” sifatida tasvirlangan. Avesto matnlaridagi “samoviy otlar” haqidagi so'zlar, ayniqsa, kosmogonik kultdagi otning rolini ko'rsatishidan dalolat beradi.

b) Petrogliflarda ot tasvirlari juft-juft, ya'ni ayg'ir va biya juftliklari shaklida tasvirlanganligi bejiz emas. Bu tasvirlarda qadimiy unumdorlik va ko'payish topinchi(kult)ini aks ettiruvchi ayg'ir va toychoq timsolini ham ko'rish mumkin. Bundan tashqari, qadimgi xalqlarning mafkurasiga ko'ra, ayg'ir va biya narigi dunyoga marhum bilan safar qilib, u yerda “abadiy yaylovda” o'tlashlari

va egasining yilqilarini ko'paytirishlari kerak bo'lgan. Neolit davrida vujudga kelgan va so'ngi davrlargacha saqlanib qolgan juft mavjudotlarga topinish, aniqrog'i, unumdorlik, tug'ilish kultiga topinish faqat chorva mollari sonini ko'payishini ta'minlab qolmay, balki insoniyat naslining davom etishi g'oyasi bilan ham bog'liq.

3. Muqaddas ot timsoli. Ot topinchi (kulti) olovga sig'inish odati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. (Беленицкий 1948; Камолиддин 2006: 79–99) Yilqichilik rivojlangan O'rta Osiyo va boshqa xalqlar folklor va etnologiyasida ot va suv havzalari o'rtasidagi bog'liqlik g'oyasi keng tarqalgan (Снесарев 1969: 323). Avesto matnlarida, Tishtria (Sirius) yulduziga, ya'ni yomg'irning yog'ishi va yomg'irli mavsumning boshlanishiga bag'ishlangan madhiyada, oq otning (Tishtria yulduzi) qora ot (qurg'oqchilik ramzi) bilan kurashi va uning ustidan g'alabasi tasvirlangan. Qadim zamonlarga borib taqaluvchi bu mifologik urf, ilk o'rta asrlar manbalarida, O'rta Osiyoda ehtirom bilan tilga olinadigan Tishtriya yulduzi timsoli bilan bog'lanadigan "Desi xudosi" haqidagi xabar, Avesto afsonalaridan kelib chiqqan qadimiy g'oyalarning uzoq vaqt davomida saqlanib qolganligidan dalolat beradi (Брагинский 1956: 105). Arab geografi Ibn Havqal Samarqand maydonlaridagi hayvonlar tasvirlari haqida ma'lumot beradi. V. V. Bartold: "Sarv darxti tanasidan o'yib tayorlangan otlar, buqalar, tuyalar va yovvoyi echkilarning ajoyib shakldagi tasvirlari bo'lib, ular bir-biriga qarama-qarshi turishib, go'yo bir-biri bilan jangga yoki musobaqaga kirishmoqchidek" (Бартольд 1963: 142), deb xabar beradi. Ma'lumki, jonivorlarning ramziy maqsadlarni ko'zlab kurashlarini o'tqazish, keng tarqalgan odat bo'lib, bu yozma manbalarda ham, etnologik materiallarda ham tasdiqlangan. "Yangi yilda ular yetti kun davomida qo'chqorlar, otlar, tuyalarning o'zaro janglarini tashkil qilib, yil serhosili yoki yomon kelishini tahmin qiladilar" (Бичурин 1951: 149). M. S. Andreev O'rta Osiyoning tog'li hududlarida, xususan, Darvozdagi ayg'ir otlarning janglarining tashkil qilinishi haqida ma'lumot beradi (Андреев 1953: 117). Qadimgi chorvador qabilalarga tegishli yodgorliklarni o'rganuvchi tadqiqotchilar, bu qabilalar diniy mafkuraviy qarashlarida shamanizm belgilari davom etib kelganligi haqida fikr bildiradilar.

4. Ot timsoli hukmronlik belgisi sifatida. Odamlarning mafkuraviy dunyoqarashlaridagi otning o'rni ijtimoiy munosabatlarda chuqur namoyon bo'ladi. Ot, qadimdan, qabiladagi hukmron tabaqa vakillarining ijtimoiy nufuzi, imtiyozlarining ramzi va belgisini bildirgan. I. V. Pyankov Ahamoniylar davrida podshoh hokimiyatining muqaddasligi haqidagi g'oyalar bilan otning diniy aloqadorligini ta'kidlaydi (Пьянков 1971: 91). Otning ijtimoiy munosabatlardagi ahamiyati, arxeologik materiallarda ham o'z ifodasini topgan. Masalan, bu holatni skif "podshohlari" qabrlarida, dafn etilgan odam bilan birga o'ldirilgan otlar soni, ularning qimmatbaho anjomlarida ham ko'rishimiz mumkin. A. P. Okladnikov, bu odat, dafn etiluvchi odamning "ijtimoiy obro'si" dan dalolat bergan deb hisoblaydi (Окладников 1951: 143). Ot jabduqlarining ijtimoiy ahamiyatini, O'rta Osiyoning ilk o'rta asrlari san'at yodgorliklaridagi aristokratlar – chavandozlar siymolarida ham kuzatishimiz mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, ot tasvirlari hukmdor taxtining bezaklari sifatida, hukmronlik timsollaridan biriga aylana borganligini e'tirof etishimiz kerak.

